

OG'IR NUTQ NUQSONLI BOLALAR**G'ofurova Nilufar Obidjon qizi***Andijon davlat pedagogika instituti maxsus pedagogika: logopediyayo 'nalishi
1-kurs talabasi*

Anotatsiya: Ushbu maqola og'ir nutq nuqsonlariga ega bolalarning nutqiy rivojlanish jarayoni, ularni nutq buzilishlarini turlari va kelib chiqishi sabablari o'rganiladi. Shuningdek, maqolada bolalarda uchraydigan bradilaliyarinolaliya Alaliya afaziya kabi nutq psixologik va fiziologik omillari tahlil qilinadi. Maqola nutq buzilishlarini aniqlash va ularning rivojlanish sabablari haqida ma'lumot beradi.

Abstract: This article explores the speech development process in children with severe speech disorders, analyzing the types and causes of these disorders. Additionally, the article examines psychological and physiological factors contributing to speech impairments such as bradilalia, rinolalia, alalia, and aphasia. The article provides information on identifying speech disorders and understanding their developmental causes.

Аннотация: В данной статье рассматривается процесс речевого развития детей с тяжелыми речевыми нарушениями, с акцентом на анализ видов и причин этих нарушений. Кроме того, в статье исследуются психологические и физиологические факторы, способствующие таким нарушениям речи, как брадилалия, ринолалия, алалия и афазия. Статья предоставляет информацию о выявлении речевых нарушений и понимании причин их развития.

Kalit so'zlar: fonatsion, semantic strukturalar bradilaliya, rinolaliya, Alaliya, afaziya, duduqlanish, nevritik duduqlanish, nevrizsimon duduqlanish.

Kirish

Nutq insonning murakkab oliy psixik funksiyalardan biridir. Nutq kishi tafakkurining rivojlanish darajasini ham belgilab beradi. Nutq faqat inson uchun xos bo'lgan alohida va yuqori darajadagi aloqa shaklidir. Nutqiy aloqajarayonida kishilar fikr almashadi va bir-birlariga ta'sir etadilar. Boladunyogakelishi bilan atrof muhit bilan muloqot qilishga intiladi lekin ayrim bolalardan nutqning rivojlanishi turli sabablarga ko'ra kechikadi yoki buziladi.

Nutqdagi kamchilik bolaning tafakkuri, xotirasi, diqqat va boshqa ruhiy jarayonlarining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Nutq buzilishlarini tahlil qilish tamoyillariga ta'rif bergan dastlabki tadqiqotchilardan biri R. Ye. Levin hisoblanadi. U shogirdlari L. S. Vigotskiyning nutq va tafakkur haqidagi ma'lumotlariga asoslanib turib, nutqni uch tarkibiy qismiga bo'lib: fonetika-fonematik, leksik, grammatik nutqqa ajratib o'rganishni tavsiya etdi. Anashu uchala qism kishining yaxlit nutq sistemasini tashkil etadi..... Nutq nuqsoni logopediya fanida

muayyan tilning me'yorlaridan chetgachiqish deb ta'riflanadi. O.V. Pravdina o'zining "Logopediya" kitobidaloopedik nutq nuqsonlarni quyidagicha harakterlagan.

Asosiy qisim

-Nutq nuqsoni o'z o'zidan barham topmaydi, balki vaqt o'tgan sari yanadamustahkamlanib, zo'rayib boradi. -Nutq nuqsoni gapiruvchining yoshiga mos kelmaydi. -Nutqiy nuqsonlari bo'lgan kishilar logopedik yordamga muhtoj bo'lishadi. -Nutqiy nutq nuqsoni kishining nafaqat nutqiga, balki umumiy rivojlanishigaham ta'sir ko'rsatadi.

Nutqdagi asosiy funksiyalarning buzilishi kishi faoliyatiga albattasalbiyta'sir ko'rsatadi, uning faolligini pasaytiradi, og'ir ruhiy kechinmalarni kelibchiqishiga sabab bo'ladi. Masalan ayrim so'zlarni noto'g'ri talaffuz etilishikishining noqulay vaziyatga solib qo'yishi bilan birga, uni atrofdagilar bilanmuomila qilishda qiynab qo'yadi, u gapirganda o'z fikrini to'la anglataolmaydi. Nutq kamchiliklarining og'ir turlari alaliya, rinolaliya, tutilibgapirish. Nutq nuqsonlari bolaning psixologik ijtimoiy va intellektualrivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, nutq buzilishlarini ertaaniqlash va tuzatishga qaratilgan logopedik ishlovlarning ahamiyati judakatta. Og'ir nutq nuqsonlari bo'lgan bolalar alohida e'tibor va yondashuv talab qiladi. Mutaxassislar nutqning o'z vaqtida rivojlanmaganligi yoki keskinsekinlashuvini sabablarini juda ko'p ekanligini aniqlashgan. -Homiladorlik davri (perinatal davr)-Tug'ruq davri (natal davr)-Tug'ruqdan keyingi davr (postnatal davr) Homiladorlik davrida turli xil kasalliklarni boshdan kechirish, turli xilinfeksiyalar, homila toksikozi, gepoksiya yoki kislorod yo'qotish qonbosimini oshishi va homila qon guruhining mos kelmasligi. Homiladorlik paytida ayrim dori-darmonlarni qabul qilish homila uchun xavfli bo'lgan joylarda ishlash (radiatsiya). Tug'ruq paytida akusherlik patologiyalari ya'nitos suyagini kichikligi, homilaning kindik o'qiga o'ralishi, tug'ruq jarayonidabosh miyani jarohatlanishi, tug'ruq jarayonida asfiksiya natijasidabolaningko'karib tug'ilishi. Tug'ruqdan keyingi davrda 1 yoshdan 3 yoshgachabo'lgan davrda bosh miyadan turli xil jarohatlarni olish bosh miyadagiinfeksiyalar, turli xil yuqumli kasalliklar sababli yuzaga keladi. Nutq nuqsonlarini tasniflashda birinchi navbatda bolaning ruhiy, aqliyvaeshitish idroki tekshirib olinadi, psixologik -lingvistik mezonlar asosidanutqning qaysi turi buzilganligiga qarab ikkita guruhga bo'lishmumkin: og'zaki va yozma. Og'zaki nutqning buzilishi o'z navbatida ikkita turga bo'linishi mumkin. 1. Bayon qilishning fonatsion (tashqi) ta'minlanishi ular nutqningtalaffuztomondan buzilishi deb ataladi. 2. Bayon qilishning semantik-struktra(ichki)jihatdan ta'minlanishiga, ular logopediyada nutqning uzluksiz yoki ko'ptovush buzilishi deb ataladi. 1) Bayon qilishdagi fonatsion ta'minlashning zaiflashuvi buzilganbo'g'ingabog'liq holda tabaqalanish mumkin. 1) Disfoniya (afoniya)-tovush apparatining patolagik o'zgarishlari oqibatidafonatsiyaning yoq bo'lishi yoki zaiflashuvi.

Bradilaliya-nutqning patologik sekinlashgan sur'ati. 3Taxilaliya-nutqning patologik tezlashgan sur'ati. Sekinlashgan sur'atdagi nutq cho'ziq tortilgan bir ohangda bo'ladi. Tezlashgan sur'atda shoshilinch, intiluvchan ekanligi ko'zgatashlanadi. Bradilaliya va taxilaliya -nutq sur'atining buzilishi -nutq jarayonining ravonligi, nutqning ohang va ifodaliligini buzilishi oqibat hisoblanadi. 4 Duduqlanish - bu og'zaki nutq jarayonida artikulyatsion apparat a'zolarimuskullarining tortilishi sababli og'zaki nutqning tempritmik o'zgarishi natijasida yuzaga keladi. Duduqlanish kelib chiqishiga ko'ra ikki xil bo'ladi 1) Nevrotik duduqlanish (logonevroz) bolaning kuchli ruhiy kechinmalari, stress, depressiya, qo'rquv, haddan tashqari qattiqqo'llik, duduqlanuvchigataqlid qilish natijasida

2) Nevrozsimon duduqlanish - bu bosh miyaning organik jarohatlanishi, boshmiyadagi turli xil o'simtalar, tayanch harakat a'zolari kasalliklari, DSP natijasida. Duduqlanish vaqtida bartaraf etilmasa bolaning ruhiy rivojlanishiga salbiy ta'sir etadi. 5 Dislaliya - tovush talaffuz normal eshitish va nutq apparatining saqlangan innervatsiyasi paytida buzilishi. Asosan tovush talaffuzida kamchiliklar vaba'zan fonematik idrok rivojlanmaganligi bilan namoyon bo'ladi ganyengil nutq nuqsoni. 6 Rinolaliya - tembri va talaffuzining nutq apparatidagi anatomik-fiziologik nuqsonlar bilan bo'liq buzilishidir. Bunda burun halqum sohasida odenoidlar, qoliplar bolishi natijasida yuzaga keladigan og'ir nutq nuqsoni hisoblanadi.

Dizartriya - nutq talaffuzi tomonining nutq apparati innervatsiyasining organik jarohatlanishi natijasida yuzaga keladigan og'ir nutq nuqsoni bo'lib, juft neyronlarning shikastlanishi natijasida yuzaga keladi. 2. Bayon qilishning strukturali-simantik (ichki) turlanishidagi buzilishi ikki tur: Alaliya va Afaziya bilan ko'rsatiladi. 1 Alaliya - bosh miya qobig'idagi nutq zonalarining bolani ona qornidayoki ilk rivojlanish davrida organ shikastlanishi natijasida nutqning yo'q bo'lishi yoki rivojlanmay qolishi. Nutqning eng murakkab nuqsonlaridan biri, bundan nutqiy bayonning paydo bo'lishi va uni qabul qilishning barcha bosqichlaridagi tanlash va rejalashtirish operatsiyalari buzilgan bo'ladi. Buning natijasida bolaning nutqi rivojlanmasdan qoladi

Hulosa

Til vositalar itizimi (fonetik, grammatik, leksik) shakllanmaydi. 2 Afaziya - bu bosh miyaning organik jarohatlanishi natijasida shakllangan nutqning yo'q bo'lishi. Bolalar afaziyasi tajribada kam uchraydi. Afaziya asosan insultdan keyin uchraydi. Bolalarda esa miya infeksiyalari miya rivojlanish davrida turli xil kuchli travmalar natijasida yuzaga keladi. Yozma nutqning buzilishi. uning qaysi turi buzilishiga qarab ikki habo'linadi. Mahsuldor tur buzilganida - yozuvni zaiflashuvi, retseptli yozma tur buzilganida - o'qishni buzilishi kuzatiladi. 1 Disleksiya - o'qish jarayonini qisman o'ziga xos buzilishi. 2 Disgrafiya - yozish jarayonini buzilishi. Nutq buzilganda bolalar bilan ko'proq didaktik mashqlar, o'yinlar olib borish kerak. Har biri nuqsonga ega bo'lgan bolalarga qalban yondashish kerak. Bolada nutq buzilishi duduqlanish qanchalik erta aniqlansashunchalik tez bartaraf etiladi. Davolash davomida bola to'g'ri nafas olib chiqarishi kerak, nafas



oldirishni ham turli xilda olib borish bola kasalliginingyengil yoki og‘irligiga qarab olib boriladi. Nutq nuqsonlarini aniqlashvaertabosqichda zarur logopedik yordam ko‘rsatish orqali bolalarning nutqiyrivojlanishini normallashtirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1"Difektologiya asoslari" kitobidan

2"Logopediya" kitobidan

3 Bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlari kun.uz